

NAMUNA

«ASIA ALLIANCE BANK» ATB ning Ommaviy oferta shartnomasi va overdraft sharti bilan kredit berishning umumiy shartlari

Ushbu hujjat «ASIA ALLIANCE BANK» ATBning (bundan buyon matnda - Bank) overdraft sharti bilan kredit berish to'g'risidagi Shartnomani tuzish yuzasidan rasmiy taklifi (ommaviy oferta) hisoblanadi. Ushbu hujjat overdraft sharti bilan kreditning umumiy shartlari, uni berish va undan foydalanish tartibini o'z ichiga oladi.

Overdraft berishning alohida shartlari Qarz oluvchi tomonidan overdraft olinishidan oldin belgilanadi. Qarz oluvchi Bank tomonidan bunday alohida shartlarni bayon qiladigan alohida hujjatga o'z imzosini qo'yishi bilan Overdraft berishning yakka tartibdagi alohida shartlarini qabul qiladi va rozilagini bildiradi.

Qarz oluvchi mazkur Ofertani aktseptlagani va Overdraft berishning tartibdagi alohida shartlarini qabul qilgani, Qarz oluvchi Bank bilan mazkur Ommaviy oferta va Overdraft berishning tartibdagi shartlarida nazarda tutilgan shartlarda overdraft sharti bilan kredit berish to'g'risidagi Shartnomani tuzgan deb hisoblanadi.

1. Shartnomani tuzish tartibi va shartlari

1.1. Bank overdraftni faqat ushu Ommaviy ofertani qabul qilish yo'li bilan (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi (O'zR FK) 369-moddasi 2-bandiga muvofiq) Bank tomonidan Overdraft sharti bilan kredit berishning umumiy shartlarini o'z ichiga olgan Shartnomani tuzgan va Overdraft berishning tartibdagi alohida shartlariga rozilagini bildirgan (O'zR FK 370-moddasi 4-qismiga muvofiq oferta aktsepti ofertada bayon qilingan shartlarda shartnoma tuzishga tengdir) Qarz oluvchiga beradi. Ommaviy ofertani qabul qilish Qarz oluvchi tomonidan quyidagi harakatlar yig'indisini bajarish bilan ifodalanadi:

A) Bank tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha (Ariza) overdraft sharti bilan kredit olish haqida Ariza bilan Bankka murojaat qilish;

B) Arizada ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim qilish;

V) Qarz oluvchining Overdraft berishning tartibdagi alohida shartlariga roziligi (Bank tomonidan Qarz oluvchiga overdraft berish to'g'risida ijobjiy qaror qabul qilingan taqdirda).

1.2. Qarz oluvchi tomonidan mazkur Ommaviy oferta va Overdraft berishning tartibdagi shartlarini aktseptlash paytidan boshlab, overdraft berishning umumiy shartlarini o'z ichiga olgan Ommaviy oferta hamda Overdraft berishning tartibdagi alohida shartlari Bank va Qarz oluvchi o'rtaida tuzilgan Overdraft sharti bilan kredit berish Shartnomasini (keyingi o'rnlarda -Shartnoma) tashkil qiladi.

2. Atamalar va tushunchalar

Qarz oluvchi – «ASIA ALLIANCE BANK» ATBda ish haqi loyihasi doirasida yoki pensiyani o'tkazish uchun ochilgan maxsus so'mdagi karta hisobvarag'iga ega bo'lган, tashkilot bilan mehnat munosabatlarida bo'lган xodim yoki pensioner.

Tashkilot – Bank bilan ish haqi doirasida tashkilotga xizmat ko'rsatishga shartnoma tuzgan va Qarz oluvchi u bilan mehnat munosabatlarida bo'lган korxona.

Overdraft – Overdraft limiti chegarasida MSKH dagi mavjud mablag'lardan tashqari Bank Qarz oluvchining surf-harajat operatsiyalarini amalga oshiradigan kreditning maxsus shakli.

MSKH – Qarz oluvchi uchun Bankda ish haqi loyihasi yoki pensiyalarni kirim qilish uchun ochilgan maxsus so'mdagi karta hisobvarag'i.

Karta – Bank tomonidan Qarz oluvchi nomiga ish haqi loyihasi doirasida yoki pensiyalarni kirim qilish uchun muomalaga chiqarilgan, Qarz oluvchiga O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq MSKH dagi pul mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljalangan naqd pulsiz to'lov vositasi sifatida emissiya qilingan plastik karta.

Overdraft limiti – Qarz oluvchiga overdraft mablag'laridan foydalanib, operatsiyalar amalga oshirish imkoniyati berilgan maksimal summa.

MSKH bo'yicha mavjud balans – Qarz oluvchining MSKH dagi shaxsiy mablag'lari qoldig'i va foydalanilmagan Overdraft limitining miqdorini ichiga olgan pul mablag'lari summasi.

Ssuda hisobvarag'i – Bankning Overdraft berish va/yoki so'ndirish bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish uchun foydalanadigan ichki hisobvarag'i.

3. Umumiy qoidalar

3.1. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan shartlarda Bank Qarz oluvchiga ish haqi doirasida yoki pensiyalarni o'tkazish uchun «ASIA ALLIANCE BANK» ATB da Qarz oluvchiga ochilgan maxsus so'mdagi karta hisobvarag'idagi (keyingi o'rnlarda MSKH) pul mablag'lari yetarli bo'limganda yoki umuman bo'limganda «overdraft» ko'rinishida kredit taqdim qiladi.

3.2. «Overdraft» (keyingi o'rnlarda - overdraft) ko'rinishidagi kredit deganda overdraft sharti bilan kredit olish haqidagi Arizada belgilangan, overdraft limiti chegarasidagi MSKHda mavjud bo'lgan mablag'lardan tashqari Bank Qarz oluvchining sarf-harajat operatsiyalari to'lovlarini amalga oshiradigan kreditning maxsus shaklini tushunish lozim.

3.3. Ushbu Shartnoma mazmunida overdraft limiti deganda Qarz oluvchiga overdraft mablag'lardan foydalanib operatsiyalar amalga oshirish imkonini beriladigan maksimal summani tushunish lozim. Overdraft limiti miqdori Qarz oluvchi tomonidan kredit berish to'g'risidagi Arizasida ko'rsatilgan summani va Qarz oluvchining kredit to'lash qobiliyatini tahlil qilish natijasini hisobga olgan holda Overdraft berishning alohida shartlarida ko'rsatiladi va o'rtacha ish haqi/pensiyaning uch baravar miqdoridan oshmasligi lozim. Ushbu Shartnoma amal qilish muddati mobaynida overdraft limiti overdraft sharti bilan kredit berish vaqtida rasmiylashtiriladigan overdraft limitining kamayish Jadvaliga muvofiq pasayadi va overdraft sharti bilan kredit berish to'g'risidagi Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Kreditlash shartlari

4.1. Karta yordamida amalga oshiriladigan operatsiyalarni to'lash uchun overdraftdan foydalanish imkonini Qarz oluvchiga Shartnomanini tuzish sanasida yoki overdraft bo'yicha ta'minot taqdim qilingandan so'ng taqdim qilinadi, agar bunday shart Overdraft berishning alohida shartlarida ko'rsatilgan bo'lsa va quyidagi holatlarning biri boshlangunga qadar amal qiladi:

- Overdraft berishning alohida shartlarida ko'rsatilgan sanagacha;
- ushbu Shartnomaning 7.2.6-bandida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha Bank tomonidan Shartnoma bekor qilingunga qadar;
- Bank tomonidan Qarz oluvchidan Shartnoma muddatidan oldin bekor qilish to'g'risidagi ariza olingunga qadar;
- ko'rsatilgan asoslar bo'yicha Shartnomanini muddatidan oldin bekor qilish sanasigacha.

4.2. Overdraft 12 oygacha bo'lgan muddatga beriladi.

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati mobaynida hisobvaraq bo'yicha mavjud balans quyidagi tarzda aniqlanadi: Qarz oluvchining shaxsiy mablag'lari qoldig'i va foydalanilmagan overdraft limiti summasini o'z ichiga olgan pul mablag'lari summasi.

4.4. Overdraft MSKH da mablag'lar yetarli bo'limganda yoki umuman bo'limganda taqdim qilinadi.

4.5. Overdraft MSKH dagi mablag'lar qoldig'idan oshgan holda MSKH bo'yicha amalga oshirilgan Qarz oluvchining operatsiyalari bo'yicha elektron yoki boshqa ko'rinishda Bank tomonidan olingan hujjatlar asosida Qarz oluvchining MSKH ga mablag'larni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Overdraftni berish sanasi bo'lib kreditga berilgan pul mablag'larini Qarz oluvchining MSKHSiga o'tkazish kuni hisoblanadi.

4.6. Overdraft taqdim qilinganligi faktini tasdiqlovchi hujjat bo'lib Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'i bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ko'chirma hisoblanadi.

5. Overdraft uchun to'lov

Overdraftdan foydalanganlik uchun Qarz oluvchi Bankka overdraftning haqiqatda ishlataligan summasiga hisoblanadigan qatiy belgilangan yillik _____ % (_____) miqdorida foizlar to'laydi.

5.1. Overdraft limitini kamayish Jadvali buzilganda, foiz stavkasi oshadi va Bank overdraft bo'yicha muddati o'tgan asosiy qarz summasiga _____ % (_____) yillik hisobidan foiz hisoblaydi.

6. Foizlarni hisoblash, to'lash va overdraftni qaytarish tartibi

6.1. Overdraftdan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash yilda 365 kun hisobidan, har oydag'i kunlar miqdori va kreditdan foydalangan kunlarning haqiqiy miqdoridan kelib chiqqan holda ish kuni oxiriga har kuni amalga oshiriladi.

6.2. Overdraftdan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash Bank tomonidan overdraft taqdim qilingan kundan boshlab va uni to'liq qaytarish kuniga qadar amalga oshiriladi.

6.3. Qarz oluvchi overdraft qarzdorligi summasini overdraft limitini kamayish Jadvalida ko'rsatilgan sanalardan kech bo'lмаган muddatda overdraft qarzdorlik summasi va hisoblangan foizlarni to'lashi shart.

Agar overdraft bo'yicha qarzdorlikni to'lash sanasi va jadval ichidagi foizlarni to'lash sanasi bank ish kuni bo'lmasa, to'lash keyingi bank ish kuniga ko'chiriladi. Agar overdraft bo'yicha qarzdorlikni to'lashning oxirgi sanasi va foizlarni to'lash sanasi bank ish kuni bo'lmasa, to'lash oldingi bank ish kuniga ko'chiriladi.

6.4. Overdraft, hisoblangan foizlar va hisoblangan neustoyka bo'yicha qarzdorlikni to'lash overdraft limitini kamaytirish Jadvalida belgilangan muddatlar tugashidan qat'i nazar, Qarz oluvchining MSKH da mavjud bo'lgan va kelib tushayotgan mablag'lardan amalga oshiriladi.

6.5. Qarz oluvchi Bankka Qarz oluvchining qo'shimcha farmoyishisiz ushbu Sharhnomaga bo'yicha qarzni so'ndirish uchun Qarz oluvchining Bankdagi MSKHsida mavjud bo'lgan va kelib tushayotgan barcha pul mablag'larini hisobdan chiqarish huquqini beradi.

6.6. Qarz oluvchi tomonidan overdraftni qaytarish (Qarz oluvchi tomonidan overdraft limiti chegarasidan chiqilganida) yoki foizlarni to'lash muddatlari buzilganda, o'z majburiyatlarini tegishli ravishda bajarish maqsadida Qarz oluvchi Bankka muddati o'tgan overdraft va foizlar bo'yicha summani, shuningdek neustoykani Bankning to'lov hujjati bilan Qarz oluvchining Bankda ochilgan MSKHsidan tashqari boshqa bank hisobvaraqlaridan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Sharhnomaning 6.7-bandida ko'rsatilgan navbatga muvofiq hisobdan chiqarish huquqini beradi.

6.7. Qarz oluvchidan kelib tushayotgan pul mablag'lari yoki Qarz oluvchining Bankdagi har qanday hisobvaraqlarida mavjud bo'lgan pul mablag'lari quyidagi tartib va navbatda overdraft bo'yicha uning qarzdorligini so'ndirishga yo'naltiriladi:

- asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlarini mutanosib ravishda;

- joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;

- neustoyka (jarima va penyalar);

- kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

6.8. Overdraft va foizlar bo'yicha Bank oldidagi qarzdorlikni so'ndirish kuni Bank tomonidan tegishli qarzdorlikni so'ndirish uchun Qarz oluvchining MSKHsidan pul mablag'larini hisobdan chiqarish kuni hisoblanadi.

7. Tomonlarning huquq va majburiyatları

7.1. Bank quyidagilarga majbur:

7.1.1. Qarz oluvchining kredit to'lash qobiliyati tahlilini o'tkazish hamda Qarz oluvchining Overdraft shartlarida kreditni berish to'g'risida ariza bilan Bankka murojaat qilgan sanadan 3 (uch) ish kuni ichida Overdraft berilishini rad etish/Overdraftni berishning alohida shartlarini tayyorlash.

7.1.2. Qarz oluvchiga mazkur Sharhnomada ko'rsatilgan miqdor va shartlarda overdraft ko'rinishida kredit berish.

7.1.3. Qarz oluvchiga mazkur Shartnoma bo'yicha qarz oluvchilik holati, muddatlari, summasi, tarkibi va muddati o'tib ketgan qarzdorlikni qaytarish bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari to'g'risida xabar berish.

7.1.4. Qarz oluvchining kredit operatsiyalari bo'yicha bank sirini saqlash.

7.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

7.2.1. Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash uchun uning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanish. Agar Bank Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini Shartnomaga muvofiq o'z vaqtida bajara olmaydi deb hisoblashi uchun asoslar bo'lsa, Bank Qarz oluvchiga overdraftni to'liq yoki qisman berishni rad etishga haqli.

7.2.2. Overdraftdan foydalanganlik uchun foizlarni mazkur Shartnomada nazarda tutilgan miqdor, muddat va tartibda hisoblash va undirish.

7.2.3. Qarz oluvchining moliyaviy ahvolini tekshirish. Bunday tekshiruvlarni o'tkazish davriyligi Bank tomonidan belgilanadi.

7.2.4. Qarz oluvchining MSKHida bo'lgan yoki kelib tushayotgan pul mablag'larini, shuningdek boshqa hisobvaraqlardagi pul mablag'larini mazkur Shartnoma bo'yicha qarzdorlikni uzish uchun hisobdan chiqarishni bunga Qarz oluvchining qo'shimcha topshirig'isiz amalga oshirish.

7.2.5. Quyidagi hollarda Qarz oluvchini kreditlashni vaqtincha to'xtatib turish (overdraft limitini nolgacha pasaytirish):

- Qarz oluvchi tomonidan overdraftni so'ndirish va hisoblangan foizlarni to'lash muddatlari buzilganda;

- Qarz oluvchi overdraft limiti chegarasidan chiqqanida;

- Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnomaning 7.3.3-bandida ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilmaganda.

Qarz oluvchi overdraft va/yoki foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikni u paydo bo'lgan oydan keyingi oy ichida so'ndirganda, Bank Qarz oluvchining overdraft limitini qayta tiklash huquqiga ega.

7.2.6. Quyidagi hollarda overdraftning foydalilanigan summasini muddatidan avval undirishga qaratilib, bir tomonlama overdraft limitini pasaytiriladi yoki Qarz oluvchining MSKHSini kreditlashdan voz kechiladi:

- Qarz oluvchining MSKHSiga pul mablag'larining har oylik tushum miqdori pasayganligi to'g'risida axborot olganda;

- Bank Qarz oluvchidan MSKHni yopish to'g'risida arizasini olganda;

- Overdraft bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlar o'z vaqtida so'ndirilmaganda;

- Qarz oluvchi mazkur Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini buzganda va/yoki bajarmaganda va/yoki lozim darajada bajarmaganda;

- Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashganda;

- Ish beruvchi bilan mehnat munosabatlar tugaganda (pensionerlar bundan mustasno);

- Bank tomonidan Qarz oluvchiining Ish beruvchisidan ish haqi loyihasi doirasida tashkilotga xizmat ko'rsatish shartnomasi bekor qilinganligi to'g'risida ariza olinganda;

- Bank Qarz oluvchi tomonidan ishonchsiz axborot berish holatlari aniqlaganda;

- Qarz oluvchi bank nazoratidan bo'yin tovlaganda;

- Overdraft qaytmasligi tavakkalchilagini oshiruvchi har qanday omillar paydo bo'lganda.

Bank Qarz oluvchiga ushbu shartnomada nazarda tutilgan Overdraftni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu Overdraft krediti bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarz oluvchiga Overdraft berish to'xtatiganligi va uning sabablari yuzasidan yozma yoki masofaviy aloqa kanallari orqali xabarnoma yuboradi.

7.2.7. Qarz oluvchini Overdraft limitini pasaytirish jadvali bo'yicha to'lovning navbatdagি sanasi to'g'risida muddatidan oldin xabardor qilish.

7.3. Qarz oluvchi quyidagi majburiyatlarga ega:

7.3.1. Overdraftdan foydalanan jarayonida kreditlashning muddatlilik, qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik kabi asosiy tamoyillariga rioya qilish (agar overdraftni berish shartlari bo'yicha ta'minot taqdim qilish nazarda tutilgan bo'lsa).

7.3.2. Mazkur Shartnomada belgilangan tartib va muddatlarda overdraftni qaytarish va hisoblangan foizlarni, shuningdek jarimani to'lash.

7.3.3. Shartnoma imzolanganidan so'ng 5 (besh) kalendar kun ichida Overdraft shartlarida kreditni berish to'g'risida arizada ko'rsatilgan ta'minotni Bankka taqdim qilish.

7.3.4. Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashishiga va Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha Bank oldidagi majburiyatlarni bajarmaslik va/yoki lozim darajada bajarmaslik xatari paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lган hech qanday majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaslik va choralar ko'rmaslik.

7.3.5. Mazkur Shartnomaning 7.2.6-bandida ko'rsatilgan holatlarda, Bankning tegishli xabarnomasini (e'tirozini) olgan sanadan 5 (besh) bank kun ichida overdraft bo'yicha qarzdorlikni, foizlarni va/yoki overdraft bo'yicha mazkur Shartnomadan kelib chiqadigan boshqa to'lovlarni so'ndirish.

7.3.6. Bank tomonidan nazorat funksiyalarni amalga oshirish uchun:

- Bank xodimlariga overdraftni olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlarda axborotni har qaysi manbalardan foydalangan holda, shu jumladan ular tomonidan yashash joyiga, ish joyiga tashrif buyurish va h.k.lar orqali tekshirish va qayta tekshirish imkonini berish;

- Bankning yozma so'rvonomasi bo'yicha bunday so'rvonoma olgan sanadan 5 kalendar kun ichida alohida ma'lumotlar, shaxsiy, biografik ma'lumotlar yoxud o'zga axborotni taqdim qilish.

7.3.7. Bankning so'rvonomasi bo'yicha Bank qilgan barcha xarajatlar va zararlarni, shu jumladan overdraft bo'yicha qarzdorlikni majburiy va/yoki muddatidan oldin undirish uchun choralarini ko'rish sababli ko'rgan xarajatlar va zararlarni unga qoplab berish.

7.3.8. Overdraft olish uchun hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida, shu jumladan pasport ma'lumotlar, propiska, ro'yxatga olish, amaldagi yashash joyi, ish joyi, familiya, ismi, otasining ismi, uy, ish yoki mobil telefon raqamlari o'zgarganligi to'g'risida, shuningdek Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lган boshqa holatlar paydo bo'lганligi to'g'risida bunday o'zgarishlar, holatlar yuz bergan sanadan 5 (besh) kalendar kun ichida Bankni xabardor qilish va zarur bo'lganda Bank bilan kredit hujjatlar uchun qo'shimcha kelishuvlarni imzolash. Bank Qarz oluvchi tomonidan ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida Qarz oluvchi xabarnomalarini olmaganligi yoxud xabarnomalar boshqa shaxs tomonidan olinganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

7.3.9. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'sir qilishi mumkin bo'lган o'zgarishlar to'g'risida Bankni darhol yozma ravishda xabardor qilish, shu jumladan:

- MSKHda pul mablag'lарining har oylik tushum miqdori to'xtatilishi yoki kamayishi;
- Bankda yoki boshqa banklardan kreditlar olish.

7.3.10. Bankning mazkur Shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan har qanday huquqlarini amalga oshirishda Bankka to'sqinlik qilmaslik.

7.3.11. Qarz oluvchi Bankning yozma rozilgisiz mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlarini boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazishga haqli emas.

7.3.12. Mazkur Shartnoma shartlari maxfiyligini saqlash.

7.4. Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

7.4.1. Mazkur Oferta shartlarini qabul qilish va Shartnomani tuzish maqsadida mazkur Ommaviy ofertaning 1.1-bandida belgilangan harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan Shartnomaga qo'shilish.

7.4.2. Mazkur Shartnomada belgilangan shartlarda overdraftning o'rnatilgan limiti doirasida "overdraft" ko'rinishidagi kreditdan foydalanish.

7.4.3. MSQHga naqd pul mablag'lарini kiritish yoki MSQHga Qarz oluvchining har qanday hisobvaraqlaridan naqdsiz shaklda pul o'tkazish yo'li bilan overdraft bo'yicha butun qarzdorlik summasini qaytarishni va muddatidan oldin foizlarni to'lashni amalga oshirish. Qarz oluvchi overdraft bo'yicha butun qarzdorlik summasini muddatidan oldin qaytarish uchun Bankka tegishli arizani taqdim qilishi kerak. Overdraft bo'yicha asosiy qarz qisman muddatidan oldin qaytarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

7.4.4. Mazkur Shartnoma imzolanganidan so'ng Qarz oluvchi tomonidan Bankdan pul mablag'lарini olgunga qadar overdraft olishdan voz kechish.

8. Overdraftning qaytarilishini ta'minlash

8.1. Agar Qarz oluvchiga taqdim qilinadigan overdraft limit miqdori _(summa raqamlar va harflar bilan ko'rsatilsin)_____ summadan oshib ketsa, Qarz oluvchi Bankka Shartnoma imzolangan so'ng 5 (besh) kalendar kundan kechiktirmasdan overdraft limiti summasidan kamida 125% (Bank bilan aloqador shaxslar bo'yicha 130%) summada quyidagi ta'minotni taqdim qilishi shart:

8.1.1. uchinchi shaxsning kafilligi. Kafillikning aniq shartlari Bank, Qarz oluvchi va Kafil o'rtasida imzolangan tegishli kafillik shartnomasida ko'rsatiladi va u mazkur Shartnoma bo'yicha kreditni berish sanasigacha Qarz oluvchi tomonidan rasmiylashtirilishi kerak. Kafillik shartnomasini imzolash bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z mablag'lari hisobidan to'laydi.

8.1.2. Qarz oluvchiga yoki uchinchi shaxsga mulk huquqi asosida tegishli bo'lган mulk garovi (bundan buyon "Garov predmeti" deb nomlanadi). Garov predmetining kelishilgan garov qiymati Overdraftni berishning alohida shartlarida, shuningdek Bank, Qarz oluvchi va Garov beruvchi (agar uchinchi shaxs garov beruvchi bo'lsa) imzolaydigan garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasida ko'rsatiladi. Kredit bo'yicha ta'minot sifatida taqdim qilinadigan yuqorida ko'rsatilgan garov predmetining aniq shartlari garov shartnomasida belgilanadi. Qarz oluvchi Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali "Garov predmetini" sug'urtalash va ushbu sug'urtani mazkur shartnomaning butun amal qilish davrida ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi deb Bank hisoblanadi. Lozim darajada rasmiylashtirilgan tegishli sug'urta shartnomasi va sug'urta polisi Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha kreditni berish sanasigacha Bankka taqdim qilinishi kerak. Notariusda garov shartnomasini rasmiylashtirish, shuningdek sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z mablag'lari hisobidan to'laydi.

8.1.3. Kredit qaytmasligi xatarini sug'urtalash. Bank mazkur Shartnoma bo'yicha kreditni bergunga qadar Sug'urtalovchi bilan kredit qaytmaslik xatarini sug'urtalash shartnomasini imzolaydi va Sug'urtalovchi nomiga sug'urta mukofotini to'laydi. Qarz oluvchi Bank tomonidan sug'urta mukofoti to'lovini amalga oshirish kuniga to'langan sug'urta mukofoti summasini Bankka qoplab beradi.

8.2. Bank bilan bog'liq bo'lган shaxslarga beriladigan kreditlar bo'yicha ta'minot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan miqdorda qabul qilinadi.

8.3. Ta'minot to'g'risida aniq ma'lumotlar Overdraft shartlarida kreditni berish to'g'risida arizada, shuningdek Overdraftni berishning alohida shartlarida ko'rsatiladi.

8.4. Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnomada belgilangan muddatda ta'minot taqdim qilinmagan taqdirda, Bank Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

8.5. Agar Qarz oluvchi mazkur Shartnoma bo'yicha belgilangan sanaga asosiy qarz, foizlar va/yoki mazkur Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan boshqa to'lovlarni uzish bo'yicha har qanday to'lovni amalga oshirishga qodir emaslik vaziyati paydo bo'lsa, Bank undiruvni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq kredit bo'yicha ta'minotga qaratish istisnosiz huquqiga ega bo'ladi.

8.6. Undiruv mazkur Shartnoma bo'yicha qabul qilingan ta'minotga qaratilganda, Bank o'z ixtiyoriga ko'ra birinchi navbatdagi undiruv ob'ektini tanlash huquqini o'zida saqlab qoladi. Undiruvni undiruv ob'ektlaridan biriga qaratish Bankni boshqa undiruv ob'ektiga (ob'ektlariga) qaratishda cheklab qo'yaydi.

8.7. Garovga qo'yilgan mol-mulkka zarar yetkazilgan va/yoki uning bozor qiymati pasaygan/oshgan taqdirda, Bank garovga qo'yilgan ashyoning qiymatini pasaytirishni/ko'paytirishni talab qilishga haqli, Qarz oluvchi esa Bankning talabiga binoan: garov shartnomasiga qo'shimcha bitim va shartnomaga Illova bo'lган garov predmetining qiymati to'g'risidagi yangi kelishuv Aktini imzolashni o'z zimmasiga oladi. Bunda garov predmetining qiymati tomonlarning kelishuvi bilan belgilanadi. Agar qiymat bo'yicha kelishuvga erishilmagan bo'lsa, rozi bo'lмаган tomon mustaqil baholovchi kompaniya tomonidan garov predmetini baholashni talab qilishga haqli. Garov predmetini baholash bilan bog'liq xarajatlar baholashni talab qilgan Tomon tomonidan qoplanadi.

Agar Qarz oluvchi kelishilgan qiymatini kamaytirish/ko'paytirish to'g'risida garov shartnomasiga qo'shimcha bitim tuzishdan asossiz ravishda bosh tortsa, Bank qarz oluvchini garov shartnomasiga qo'shimcha bitim tuzishga majburlash talabi bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

8.8. Garov predmeti va/yoki uning bir qismiga nisbatan undirish qo'llanilganda, Bank o'z xohishiga ko'ra bir tomonlama tartibda undirishning ustuvor ob'ektini tanlash va/yoki Sug'urtachiga da'vo qo'yish huquqini o'zida saqlab qoladi. Garov predmeti ob'ektlaridan birining undirilishi Bankni garov predmetining boshqa ob'ektiga va/yoki uning bir qismiga da'vo qo'yishini cheklamaydi.

8.9. Qarz oluvchi Shartnomaga binoan o'z majburiyatlarining bajarilishi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq undirib olinishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli bo'lgan barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi

9. Tomonlarning javobgarligi

9.1. Qarz oluvchi tomonidan Overdraft limitini kamayish jadvalida belgilangan muddatda overdraftni (asosiy qarzni) so'ndirish bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganda (Qarz oluvchi overdraft limitini oshirib yuborganda), Qarz oluvchi Bankka mazkur Shartnomaning 3.2-bandiga muvofiq oshirilgan foiz stavkasi bo'yicha foizlarni to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

9.2. Foizlar Overdraft limitini kamayish jadvalida belgilangan muddatda to'lanmaganda va ular bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan summalar hosil bo'lganida, Qarz oluvchi Bankka to'loving har bir muddati o'tkazib yuborilgan summaning 0,15 foiz miqdorida penya to'laydi, lekin u muddati o'tkazib yuborilgan to'lov summasining 50 foizidan oshmasligi kerak.

9.3. Overdraftni belgilangan muddatda ajratishni kechiktirganligi uchun Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan kredit miqdorning 0,10 % miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda penya to'laydi.

10. Shartnomaning amal qilish muddati, Shartnomani o'zgartirish va tugatish tartibi

10.1. Mazkur Shartnoma Qarz oluvchi Ommaviy ofertaning 1.1-bandida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan sanadan kuchga kiradi.

10.2. Qarz oluvchi mazkur Shartnomani bir tomonlama istalgan asoslar ko'ra Bankka Shartnomani bekor qilish to'g'risida yozma arizani yuborib, bekor qilish huquqiga ega. Bunday arizani olgan kunida Bank Qarz oluvchini kreditlashni to'xtatadi (overdraft limitini nolgacha kamaytiradi) va overdraftning ishlatilgan summasini muddatidan oldin undiruvga qaratadi. Shartnoma Qarz oluvchi tomonidan overdraftni qaytarish bo'yicha majburiyatlar bajarilgan va foizlar to'langan kundan e'tiboran bekor qilingan hisoblanadi.

10.3. Bank mazkur Shartnomaning 7.2.6-bandidagi holatlar yuzaga kelganida mazkur Shartnomani bir tomonlama Qarz oluvchini qo'shimcha xabardor qilmasdan bekor qilish huquqiga ega.

Mazkur holatlar boshlanganligi to'g'risida Bankka ma'lum bo'lgan kundan boshlab, Bank Qarz oluvchini kreditlashni to'xtatadi (overdraft limitini nolgacha pasaytiradi) va overdraftning ishlatilgan summasini muddatidan oldin undiruvga qaratadi.

10.4. Bank tomonidan Ommaviy ofertaning matniga o'zgartirishlarni kiritgan taqdirda, mazkur Ommaviy oferta matniga o'zgartirishlarni (qo'shimchalar) kiritgunga qadar Bank bilan tuzilgan shartnomalar, shartnomaga ko'ra o'z majburiyatlarini to'liq ravishda Tomonlarning uzil-kesil bajarishiga qadar o'zgarmasdan o'z shartlarni saqlab qoladi.

11. Boshqa shartlar

11.1. Nizolar yuzaga kelgan taqdirda, bank yozuvlari mazkur Shartnoma bo'yicha har ikki taraf majburiyatlarining imtiyozli dalili hisoblanadi.

11.2. Taraflarning bir-birlariga talabnomalari (xabarnomalar, xatlar va boshqa hujjatlar), agar ular yozma shaklda tayyorlangan bo'lsa, Qarz oluvchi/Bank tomonidan imzolangan va ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Qarz oluvchi/Bankning manzillariga buyurtmali pochta jo'natmasi bilan yuborilgan yoki Qarz oluvchi/Bank tomonidan yetkazib berilgan bo'lsa, imzo chektirilib qo'lga topshirilgan bo'lsa yoxud Masofadan xizmat ko'rsatish kanallari yoki faks orqali yuborilgan bo'lsa, tegishlisha yuborilgan deb hisoblanadi.

11.3. Xabarnoma pochta bo'linmasi tomonidan pochta kvitantsiyasida qo'yilgan sanadan, xabarnomada ko'rsatilgan kurer tomonidan xabarnoma olingan sanadan (kurer tomonidan yetkazilgan taqdirda), yoki faksimil aloqa yordamida yuborilgan sanadan yoki xabarnoma Masofali xizmat ko'rsatish kanallari bo'yicha yuborilgan sanadan yuborilgan deb hisoblanadi. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda ikkala tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladi.

Bankning har qanday xabarnomasi, so'rovi yuborilgan sanadan e'tiboran uch kalendar kuni o'tgandan so'ng, Qarz oluvchi tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi.

11.4. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan vaziyatlar yuzaga kelganda ikkala tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga tayanadi.

11.5. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, ijro etish, buzish, bekor qilish, to'xtatish va haqiqiy emasligi bilan bog'liq bo'lган barcha nizolar, kelishmovchiliklar va da'volar Taraflar tomonidan talabnomalarni ushbu Shartnomaning 11.2-bandida ko'rsatilgan tartibda yuborish orqali hal qilinadi.

11.6. Nizolarni o'zaro kelishuvlar yo'li bilan hal qilish imkonи bo'lмаган taqdirda, ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar, shu jumladan ushbu shartnomani tuzish, uni ijro qilish, o'zgartirish, bekor qilish, uning haqiqiy emasligiga doir nizolar Da'vogarning ixtiyoriga ko'ra "DS Legal Centre" MCHJ huzuridagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Hakamlik sudi yoki fuqarolik ishlari bo'yicha _____ tumanlararo sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Nizolar "DS Legal Centre" MCHJ huzuridagi Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqilgan taqdirda, ishlar ushbu sudning Raisi tomonidan "DS Legal Centre" MCHJ hakamlik sudining Qoidalariga muvofiq hal qilinadi. Hakamlik sudining qarori qat'iy va taraflar uchun majburiy bo'lib qayta ko'rib chiqlmaydi.

11.7. Ushbu Shartnoma bilan Qarz oluvchi(-lar), kredit tarixini shakllantirish uchun, Bank tomonidan Kredit axboroti davlat reestri, Kredit byurosi, Garov reestri Davlat unitar korxonasiga ushbu Shartnomaning tuzilish shartlari, taqdim etilgan ta'minot va majburiyatlarning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etilishiga rozilagini bildiradi.